



Shuning uchun ham o'zlashtirish jarayonida fanning o'ziga xosligi, mazmunidan kelib chiqqan holda fanga oid kompetentsiyalar shakllantiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sh. Mirziyoyev Erkin va farovon demokratik Ozbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T: O'zbekiston NMIU, 2016
2. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti / O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2017-yil.
3. Jo'rayev R.X., Rahimov B.X., Xolmatov Sh.F., Yangi pedagogik texnologiyalar.–T., Fan, 2005. 66
4. Морган Л. Первобытное общество: Исследования прогресса человечества из дикого состояния к варварству и из варварства к цивилизации.- СПб: Л.Ф.Пантелеев, 1900.- [3. С.97-102].
5. Энгельс Ф. Происхождение семьи, частной собственности и государства: в связи с исследованиями Льюиса Г. Моргана.- М.: УРСС, 2007.- [4. С.45].
6. Tokarev S. History of foreign ethnography.- М.: Vysshaya school, 1978.- [5. S.111-117].
7. Ясперс К. Смысл и назначение истории.- М.: Республика, 1994.- [6. С.36-43].
8. Danilevskiy N. Russia and Yeurope: Russia and Yeurope: cultural and political views of the Slavic world to the Germano-Romance.- М.: Yeksмо, 2003; Toynbi A. Civilization pered sudom istorii.- Moscow: AYRIS PRESS, 2006; Shpengler O. Zakat Yevropy. Gestalt and activity. Yessays on the morphology of world history.- М.: Yeksмо, 2006.- [7.S.77-83.]

TA'LIM JARAYONIDA O'QUV-TADQIQOT FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISHDA FAN O'QITUVCHISINING KASBIY KOMPETENTLIGINING O'RNI

<https://zenodo.org/doi/10.5281/zenodo.11612458>

Xo'jamberdieva Jamila Norqobilovna
Qarshi davlat universiteti katta o'qituvchisi
Xoliyorova E'zoza
Qarshi davlat universiteti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada fizika ta'limida o'quv-tadqiqot faoliyatini shakllantirishda fan o'qituvchisining kasbiy kompetentligi, kasbiy kompetentlik darajasining ta'lim samaradorligini ta'minlashdagi ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

Ta'lim jarayonida o'quv-tadqiqot faoliyatini loyihalash va tashkil etish, o'quv-tadqiqot



faoliyatiga muvofiq keluvchi bilimlar tizimini tarkib toptirish va shakllantirish, fizikadan individual o'quv-tadqiqotlariga rahbarlik qilish masalalarida fizika fani o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirish nazariyasi bayon etilgan.

Fizika ta'limida fizika fani o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning metodik modeli tavsiya etilgan.

Kalit so'zlar: o'quv-tadqiqot faoliyati, metodik tizim, model, komponenta, motivatsion, loyihalashtirish, faoliyatli komponentlar, tadqiqot natijalarini modellashtirish.

РОЛЬ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПЕДАГОГА В ФОРМИРОВАНИИ УЧЕБНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Ходжамбердиева Джамила Норкobilовна

Старший преподаватель Каршинского государственного университета

Холиерова Эзога

Студентка 2 курса Каршинского государственного университета

Аннотация: В статье рассматривается профессиональная компетентность учителя физики при формировании учебно-исследовательской деятельности в физическом образовании, значение уровня профессиональной компетентности в обеспечении эффективности обучения.

Изложена теория развития профессиональной компетентности учителя физики в вопросах проектирования и организации учебно-исследовательской деятельности в образовательном процессе, содержания и формирования системы знаний, соответствующих учебно-исследовательской деятельности, руководства индивидуальными учебно-исследовательскими занятиями по физике.

Предложена методическая модель развития профессиональной компетентности учителя физики в физическом образовании.

Ключевые слова: учебно-исследовательская деятельность, методическая система, модель, компонент, мотивация, проектная деятельность, моделирование результатов исследований.

THE ROLE OF THE SCIENCE TEACHER'S PROFESSIONAL COMPETENCE IN THE FORMATION OF EDUCATIONAL AND RESEARCH ACTIVITY IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Khojamberdieva Jamila Norkhobilovna

Senior teacher of Karshi State University

Kholiyorova Ezoza

2nd year student of Karshi State University

Abstract: The article examines the professional competence of a physics teacher in the formation of educational and research activities in physical education, the importance of the level of professional competence in ensuring the effectiveness of training.

The theory of the development of the professional competence of a physics teacher in the design and organization of educational and research activities in the educational process, the content and formation of a knowledge system of relevant educational and research activities, the management of individual educational and research classes in physics is presented.



A methodological model for the development of the professional competence of a physics teacher in physical education is proposed.

Keywords: *educational and research activities, methodological system, model, component, motivation, project activity, modeling of research results.*

KIRISH

Hozirgi davrda ta'lim oluvchilarda o'quv-tadqiqot faoliyatini shakllantirish faoliyati pedagogning birlamchi vazifalari qatorida e'tirof etilmoqda. Bu e'tirof mamlakatimiz ta'lim tizimining meyoriy-huquqiy hujjatlarida o'z ifodasini topgan. Davlat ta'lim standartlarining "Pedagogik ta'lim" bo'limida pedagogning mehnat faoliyati davomida nazarda tutilgan asosiy funksiyalari keltirib o'tilgan. Ya'ni pedagog "ta'lim muassasalari o'quv jarayonlarida o'quv-tadqiqot faoliyatini loyihalash va amaliyotga joriy etish", "asosiy umumta'lim dasturlarini loyihalash va amaliyotga joriy etish" kabi funksiyalarni bajarishi lozimligi belgilab o'tilgan.

Tadqiqot insonning bilish faoliyatining bir ko'rinishi bo'lib, yangi bilimlarni o'zlashtirish jarayonini anglatadi. Hozirgi zamon pedagoglarining muhim maqsadlaridan biri ma'naviy boy, jismonan sog'lom, erkin, ijodiy fikrlovchi shaxsni, o'z-o'zini rivojlantirish va anglashga qodir insonni tarbiyalashdan iborat. Bu jarayonni samarali tashkil etish uchun dastlab fizika ta'limida ta'lim oluvchilarning o'quv-tadqiqot faoliyati to'g'ri va tizimli shakllantirilishi kerak. Ta'lim oluvchilar o'quv-tadqiqot faoliyati davomida tabiatda yuz beradigan jarayonlarning asl mohiyatini tushunishga va yuzaga kelish sabablarini bilishga harakat qiladi. Masalan, atrofdagi barcha jismlar atomlardan tuzilgan, ta'lim oluvchida atomlar tuzilishi bir xil ekanligini bilgan holda nega jismlarning fizik xossalari turlicha degan savol paydo bo'ladi. Bu holatni qattiq jismlarning issiqlikdan kengayishi va torayish jarayonlarida kuzatishimiz mumkin. Mana shu vaqtda ta'lim oluvchi o'quv-tadqiqot faoliyati asosida nazariy olingan ma'lumotlarni amaliyotda tekshirib ko'rishi lozim, ya'ni bir nechta turlicha atomlardan tuzilgan qattiq jism olinishi va issiqlik ta'sirida ularning deformatsiyasi kuzatilishi kerak. Tajribani faqatgina kuzatishlarga asoslanmasdan, natijani tahlil qilish asosida ham tushuntirish zarur bo'ladi. Tushuntirishda esa fan o'qituvchisining kasbiy kompetentligi muhim rol o'ynaydi, tizim modelining komponentlaridan to'g'ri foydalanishi samarali natijani kafolatlaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Fizika fanining o'qitishda o'qituvchining kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalalari ko'pgina adabiyotlarda tushuntirilgan. Jumladan I.V.Grebenev o'qituvchilarning metodik kompetentligini rivojlantirishning asosiy nazariyasi haqida quyidagi fikrni aytadi: "O'qituvchi har qanday sharoitda ham o'quv jarayonini modellashtirish, loyihalash va tashkil etish ko'nikmasiga ega bo'lishi shart".



I.V.Grebenev va O.V.Lebedeva tomonidan o'qituvchining kasbiy kompetentligini metodik kompetentligining shakllanganlik darajasiga bog'liqligining ko'rsatkichlar tizimi, shu jumladan, tadqiqotchilik mezonlari ishlab chiqilgan. Unda tadqiqotchilik mezonni pedagogning "o'z tadqiqotchilik faoliyatini va ta'lim oluvchilarning tadqiqot faoliyatini tashkil etish uchun zarur bo'lgan bilim va malakasini aniqlash" uchun xizmat qilishi ta'kidlangan.

E. Y. Drobishev, D. A. Chernishevlar birgalikda "Biz ishonamizki, ta'lim jarayonida o'quv - bilish qobiliyatini rivojlantirishning eng samarali usullaridan biri bu-o'quv-tadqiqot faoliyatini o'qituvchi rahbarligi ostida, nostandart yondashuv yordamida ijodiy, yangi, tizimli bilimlarni hosil bo'lishiga olib keladigan faoliyatni tushunamiz" degan fikrni ilgari surgan.

V. S. Lazarev, N. N. Stavrinovalar quyidagi fikrni aytib o'tishgan: "Insonning ta'lim olish va psixologik rivojlanishida, jumladan ta'lim olishida faoliyat prinsipi asosiy rol ni bajaradi. Ta'lim oluvchilarning o'quv-tadqiqot faoliyati shakllanishida o'quv faoliyat tuzilishi, mazmuni, shakllanishida va tatbig'ida ikkita subektning "o'qituvchi-ta'lim oluvchi" ning kompetentli faoliyati yotadi."

O.V. Lebedeva o'qituvchining kasbiy kompetentligi tushunchasiga "pedagogning malakasi mutaxassis tayyorlash, shaxsni shakllantirish jarayonida o'quv-tarbiyaviy masalalarni mahsuldor hal etishi uchun zarur bo'ladigan bilim va nufuz darajasidir" deya ta'rif bergan bo'lsa, V.S. Lazarev "kasbiy kompetentlilik" tushunchasiga quyidagicha ta'rif beradi: uning talqinicha, kasbiy kompetentlilik bu – "o'qituvchining bilim, mahorat va malakasi, shuningdek, uning kasbiy qarashlarini o'zida mujassam etgan integrativ (umumlashgan) sifatdir".

V.A Belyanin pedagogik kompetentlilik tushunchasini "shaxsning bilimi, ko'nikma va malakasi, shuningdek, ularni amaliyotda, o'zaro munosabatlarda, o'z-o'zini rivojlantirishda qo'llay bilish mahorati", deb hisoblaydi.

Ilmiy-metodik adabiyotlarni tahlili shuni ko'rsatadiki, fizika ta'limida o'quv-tadqiqot faoliyatini shakllantirishda o'qituvchining kasbiy kompetentligining o'zini va ahamiyatiga bag'ishlangan tadqiqotlar yetarli darajada metodik tahlil qilinmagan, bu esa bu masalada metodik ishlanmalarga ehtiyoj borligini anglatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ta'lim jarayonida nazariy bilimlarini o'quv-tadqiqotlari hamda amaliy tekshirish orqali ta'limning barcha bosqichlarida o'quv-tadqiqot faoliyatini shakllantirish metodlarini tizimli o'rgatish samarali natijalar beradi.

O'qituvchilarining kompetentligining masalasini tadqiq etishda, o'quv va tadqiqot masalalarini hal etishda muammoli, tadqiqotli, izlanishli metodlardan foydalanish va o'qituvchining metodik jihatdan tayyorlanganligi faqat uning ilmiy-nazariy va psixologik-pedagogik kompetentlilik sohalaridagi shakllangan bilim va mahorati negizida amalga oshirilishi mumkinligi asoslandi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur maqolada biz metodik kompetentlilik tushunchasiga “didaktika sohasidagi bilim, fanni o’qitish metodikasi, o’zlashtirishning psixologik mexanizmlari inobatga olingan aniq bir didaktik vaziyat uchun o’quv jarayonini ilmiy asosda tuzish va joriy etish” mahorati sifatida ta’rif berdik.

Fizika fani o’qituvchisining kasbiy kompetentligi haqida mulohaza yuritganimizda, mazkur kompetentlilikning barcha tashkil etuvchi komponentlarini yaxlit holda rivojlantirish lozimligi, komponentlardan birining yuksak darajada rivojlanishi boshqa bir komponentning yo’qligi yoki kam rivojlanganligining o’rnini bosa olmasligiga e’tibor qaratish lozim.


Pedagogning kasbiy kompetentligi tushunchasini pedagogning kasbiy va shaxsiy sifatlari, pedagogik-psixologik hamda maxsus malaka va amaliy ko’nikmalari asosida ta’lim oluvchilarning o’quv-tadqiqot ishlariga rahbarligi, shuningdek, mazkur jarayon natijasida ta’limning bosqichma-bosqich umumrivojlanish tamoyillari bo’yicha integrativ shaxsiy-funksional ta’limga o’tib borishini ta’minlovchi xususiyatlar majmuasi sifatida tavsif etish mumkin.

O’quv-tadqiqot faoliyatini loyihalash, ta’lim oluvchilarning o’quv-tadqiqot faoliyatini tashkil etish quyidagi tartibda o’rgatib borilishi lozim:

- fan o’qituvchisining o’quv jarayonida o’quv-tadqiqot faoliyatini loyihalash modeli va algoritmini o’zlashtirishi;
- o’quv jarayonida o’quv-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bosqichlariga muvofiq keluvchi bilimlar mundarijasini tarkib toptirish;
- fizika bo’yicha amaliy mashg’ulotlarni tashkil etish va ta’lim oluvchilarning individual o’quv-tadqiqotlariga rahbarlik qilish bo’yicha mahorat va malakasini rivojlanishiga oid metodik bilimlar tizimini rivojlantirishga qaratiladi.

Fizika fani bo’yicha o’quv tadqiqotlarini tashkil etishda amaliy tajribalarning o’rni beqiyosdir. Shuning uchun har qanday tajriba uchun zarur bo’ladigan jihozlar, axborot-kommunikatsion texnologiyalarini (kompyuterlar, raqamli laboratoriyalar, tadqiqot natijalarini modellashtirish va ularga matematik ishlov berishning dasturiy ta’minoti, interfaol doska, taqdimot uchun multimedia proektorlari va shu kabilar) qo’llashni bilish talabi - fan o’qituvchisining kasbiy kompetentligi rivojlantirishning asosiy metodik tizim mezonlarini belgilaydi.





1-rasm. Fizika fani o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning metodik modeli

Fizika ta'limida o'quv-tadqiqot faoliyatini loyihalashtirish va tashkil etish jarayonlarining maqsadli, nazariy va metodik majmualarni o'z ichiga olgan model tahlilida tadqiqotchilik mahoratlarini shakllan-tirishga qo'yiladigan talablardan kelib chiqqan holda tuzildi. Majmua tarkibiga fizika o'qitishda ta'lim oluvchilarning o'quv-tadqiqot faoliyatini tashkil etishning metodologik (tizimli-faoliyatli yondashuv va shaxsga yo'naltirilgan yondashuv) va nazariy asoslari, shuningdek, mazkur faoliyatning tamoyillari va qonuniyatlari kiritildi.

Majmua mazmun-mundariyasi: Ilmiy-nazariy – Metodik - Pedagogik-psixologik;

QO'LLANILADIGAN METOD VA VOSITALAR:

Umumiy metodik (didaktik) - Maxsus metodlar va ularning fizikada qo'llanilishi – Maxsus - Metodologik - Axborotli;

Ta'lim natijalarini tashxislash: Pedagogik-psixologik – Kommunikativlik - Differensial-psixologik ko'rinishidagi tizimdan iborat.

Fizika ta'limida fan o'qituvchisining kasbiy kompetentsiyasini shakllantirishning metodik tizimining asosi tizimli yondashuv bo'lib, kompetentlik darajasi va metodik tizim tarkibiy qismlarining mazmunini aniqlashga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. "Oliy ta'limning davlat ta'lim standartini tasdiqlash to'g'risida"gi O'zbekiston respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining buyrug'i. 2021 yil 19 oktabr.

2. Белянин В.А. Методическая система формирования исследовательской компетенции будущего учителя при изучении физики: дис



докт. пед. наук: 13.00.02 - М, 2012.

3. Гребенев.И. В. Теоретические основания развития методической компетентности учителя / И. В. Гребенев, О. В. Лебедева // Вестник Нижегородского университета им. Н.И. Лобачевского. - 2007. - № 4. - С. 21-25

4. Дробышев, Е. Ю. Компоненты готовности учителя к организации учебно-исследовательской деятельности школьников.// Инновации в профессиональном и профессионально педагогическом образовании: Издательство: Российский государственный профессионально педагогический университет (Екатеринбург). - 2018.

5. Лазарев В.С. Система подготовки будущих педагогов к исследовательской деятельности: монография / В. С. Лазарев,Н. Н. Ставринова. - Ханты-Мансийск, 2010. - 210 с.

6. Лебедева, О.В. Развитие методической компетентности учителя как средство повышения эффективности учебного процесса в общеобразовательной школе: дис-канд. пед. наук: 13.00.01 - Нижний Новгород, 2017. - 183 с.

